

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 7 - iyul

137-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-iyuldagi
418-F-sonli farmoyishi haqida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-iyuldagi 418-F-sonli farmoyishi ijrosini taminlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-iyuldagi 418-F-sonli farmoyishi ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur farmoyishi bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Energetika vazirligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023-yil 10-iyul - 10 avgust kunlari respublika hududida "Yong'in xavfsizligini taminlash bo'yicha "Dolzarb 30 kun" (keyingi o'rinlarda -"Dolzarb 30 kun") tadbirini amalga oshirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi malumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Qoraqalpog'iston Respublikasida "Dolzarb 30 kun" tadbirini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

"Dolzarb 30 kun" tadbirini amalga oshirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Joylarda amaliy yordam ko'rsatish va belgilangan tadbirlarning ijrosini nazorat qilish maqsadida shahar va tumanlarga tegishli vazirliklar va idoralardan masullar 3-ilovaga muvofiq biriktirilsin.

4. Nukus shahar va tumanlar hokimliklari belgilangan tartibda:

uch kun muddatda “Dolzarb 30 kun” tadbirini amalga oshirish bo‘yicha shahar va tumanlar hududiy komissiyalar tarkibini tasdiqlasin;

“Dolzarb 30 kun” tadbiri davrida korxonalar, tashkilotlar va jamoatchilik vakillarini yong‘inlarning oldini olish ishlariga keng jalb etilishini taminlasin;

jamoat transporti, odamlar gavjum bo‘ladigan joylar va avtomobil yo‘llarining katta chorrahalaridagi bilbordlar, elektron tablo va axborot yetkazuvchi boshqa texnik vositalarga “Dolzarb 30 kun” tadbiri va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha materiallarni joylashtirsin;

har o‘n kunda amalga oshirilayotgan ishlarning tanqidiy muhokama qilinishi hamda unda tegishli rahbarlar hisobotlarining eshutilishini taminlasin;

“Dolzarb 30 kun” tadbiri doirasida rejalashtirilgan tadbirlarning ijrosini tizimli nazoratga olsin hamda mavjud muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilishini taminlasin;

bir hafta muddatda:

suvsiz hududlarda yong‘inga qarshi suniy suv taminoti manbalarini tashkil etish;

mavjud tabiiy suv manbalaridan yong‘in-qutqaruv texnikalari bilan suv olish uchun pirslarni barpo etish;

nosoq gidrantlar va yong‘inga qarshi suv hovuzlarini ta'mirlash;

yangidan tashkil etilayotgan aholi yashash punktlarida shaharsozlik normalari va qoidalari asosida yong‘inga qarshi suv taminotini tashkil etish;

suvsiz hududlari bor tumanlarda tuman obodonlashtirish xizmatiga tegishli suv tashish texnikalarining doimiy navbatchiligini tashkil etish hamda aholi punktlari va ochiq maydonlarni yonishga moyil bo‘lgan qurigan o‘simliklar va chiqindilardan tozalash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan birgalikda barcha tashkilotlarda hamda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari yoki ko‘chma yong‘in o‘chirish texnikasiga ega idoraviy yong‘indan saqlash xizmatidan uzoq masofada joylashgan aholi punktlarida belgilangan tartibda ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish, shuningdek, faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘ngilli bo‘linmalarining tarkibini qisqa muddatda yangilash choralari ko‘rsin.

5. Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar rahbarlari **ikki hafta**

muddatda o‘rnatilgan tartibda davlat yong‘in nazorati organlari tomonidan, shu jumladan, muqaddam o‘tkazilgan tekshiruvlar va profilaktika tadbirlari yakuni bo‘yicha rasmiylashtirilgan taqdimnoma va boshqa hujjatlardagi ko‘rsatmalarni bajarish choralari ko‘rsin hamda natijasi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga belgilangan tartibda axborot taqdim etsin.

6. Tizimida o‘rta muhim, davlat ahamiyatiga molik, yirik ijtimoiy-madaniy, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektlari bo‘lgan vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan birgalikda **uch kun muddatda** belgilangan tartibda:

davlat yong‘in nazorati organlari tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlarda aniqlangan yong‘in xavfsizligi qoidalarining buzilish holatlari tezkorlik bilan bartaraf etilishini taminlasin;

yangidan tashkil etilayotgan o‘rta muhim, davlat ahamiyatiga molik, yirik ijtimoiy-madaniy, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida belgilangan tartibda yong‘in-texnik komissiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘ysin;

kadrlar tarkibidagi o‘zgarishlarni etiborga olgan holda, mavjud yong‘in-texnik komissiyalar tarkibini yangilash choralari ko‘rsin, obyektlardagi ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmatlarining (drujina, komanda) salohiyatidan samarali foydalanishga alohida etibor qaratsin;

obyektlarda yong‘in xavfsizligini taminlash borasida mavjud hamda uzoq vaqtdan buyon hal etilmayotgan muammo va kamchiliklarning bartaraf etilishini taminlasin;

obyektlar hududining begona o‘tlar va qurigan o‘simliklardan muntazam ravishda tozalanishini taminlasin;

o‘ta muhim va toifalangan obyektlarning yong‘inga qarshi kurash holatini doimiy kuzatish maqsadida Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishgan holda soqchilik xizmatini belgilangan tartibda yo‘lga qo‘ysin.

7. Qoraqalpog‘iston Teleradiokompaniyasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Nukus shahar va tumanlar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali “Dolzarb 30 kun” tadbirining mazmun-mohiyati hamda yonginlarning oldini olish tadbirlari va yong‘in xavfsizligi qoidalarining televideniada ommabop vaqtda maxsus telekursatuvlar orqali yoritilishi, mavzuga doir radioeshittirishlar efirga uzatilishi, ijtimoiy tarmoqlarda axborot berib borilishi, shuningdek, doimiy ravishda davra suhbatlarini tashkil qilish tavsiya etilsin.

8. Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va xo‘jalik birlashmalari rahbarlari, Nukus shahar va tumanlar hokimlari zimmasiga “Dolzarb 30 kun” tadbiri doirasida belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin.

9. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov va Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i A.Davletov zimmalariga yuklatilsin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 7-iyuldagi
137-13-0-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

Qoraqalpog‘iston Respublikasida “Dolzarb 30 kun” tadbirini amalga oshirish bo‘yicha

ChORA-TADBIRLAR REJASI

| № | Tadbirlar nomi | O‘tkazish vaqti | Masul ijrochilar |
|-------------------------------|---|---|--|
| I. Tashkiliy tadbirlar | | | |
| 1. | “Dolzarb 30 kun” tadbiri davrida joylarga amaliy yordam ko‘rsatish va belgilangan tadbirlarning ijrosini nazorat qilish maqsadida vazirliklar, idoralar va tashkilotlardan tuman (shahar)larga masullarni birlashtirish. | 2023-yil 10-iyulga qadar | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi |
| 2. | “Dolzarb 30 kun” tadbiri davrida yong‘inlarning oldini olish ishlariga keng jamoatchilikni jalb etish maqsadida, davlat organlari va tashkilotlarda hamda mahallalarda jamoatchilik va volontyorlar guruhlarini shakllantirish, ularga tadbir mazmun-mohiyatini tushuntirish va davlat yong‘in nazorati organlariga amaliy yordam doirasini belgilab berish, faoliyatini muvofiqlashtirish va tahlil qilish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Nukus shahar va tumanlar hokimliklari, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov) |
| II. Asosiy tadbirlar | | | |
| 3. | Yozgi dam olish va sog‘lomlashtirilish maskanlarining yong‘in xavfsizligini taminlash choralarini ko‘rish, yani: obektlarda o‘t o‘chirgichlarning qo‘shimcha zahirasini yaratish; barcha elektr taminoti tizimini muvofiq holga keltirish (elektr sim va kabellarni bir biriga to‘g‘ri ulash, elektr rozetka, o‘chirgich, rubilniklardan to‘g‘ri foydalanish, himoya saqlagichlar (avtomatlar), elektr jihoz va maishiy texnikalarning to‘g‘ri ulanishi) “Elektr uskunalarning tuzilish qoidalari” talablari asosida bajarilishini); tegishli xonalarning maishiy konditsionerlar bilan sovitilishida elektr jihozlardan xavfsiz foydalanish qoidalariga qati amal qilinishi ustidan nazorat o‘rnatish; obektda yong‘inni o‘chirish uchun yetarli miqdorda suv zaxirasini yaratish, mavjud cho‘milish havzalariga yong‘in o‘chirish avtomobillarining to‘siqsiz bora olishini taminlash; barcha rahbar va ishchi-xizmatchilar bilan yong‘in yuz berganda dam oluvchilarni evakuatsiya qilish va qo‘l ostidagi yong‘inni o‘chirishning birlamchi vositalari, xususan, o‘t o‘chirgichlar bilan ishlash bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazib borish; gulxan yoqish tadbirlarini alohida nazoratga olish, ushbu tadbirlarni maxsus muhofaza vositalari bilan ta‘minlangan joylarda va shamoldan xoli paytlarda tashkil etilishini ta‘minlash; rahbar va ishchi-xizmatchilar tarkibidan ko‘ngilli yong‘inidan saqlash drujinalarini tashkil etish va ularning yong‘in o‘chog‘ini boshlang‘ich paytida o‘chirish hamda yong‘in-qutqaruv bo‘linmalarini chaqirish tartibi bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish; obekt va unga tutash hududlarni yonishga moyil bo‘lgan begona o‘tlar, qurigan o‘simliklar va chiqindilardan tozalash choralarini ko‘rish. | Mavsum davomida | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Qoraqalpog‘iston kasaba uyushmalari birlashmasi (U. Jalmenov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 4. | Iqtisodiy ahamiyatga ega va favqulodda vaziyat yuz berish darajasi yuqori bo‘lgan, shuningdek, odamlar ommaviy yig‘iladigan quyidagi obektlarda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktyabrdagi 649-son qarori bilan tasdiqlangan Yong‘in xavfsizligi qoidalari va boshqa taalluqli normativ hujjatlar talablari bajarilishini o‘rganish ishlarini amalga oshirish: 1) yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan obektlarda; 2) bozorlar va savdo majmualarida; 3) odamlar ko‘p to‘planadigan joylarda; 4) Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tuzilmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obektlarda aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan natijador choralar ko‘rish; zaruratga qarab “Xavfni tahlil etish” tartibi asosida yong‘in chiqish xavfi mavjud tadbirkorlik subektlarida tekshiruvlar o‘tkazish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), “Qoraqalpog‘ hududiy elektr tarmoqlari” AJ (A. Nurimbetov), “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” GTF (X. Aymanov), tegishli vazirlik va idoralar, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |

| № | Tadbirlar nomi | O'tkazish vaqti | Masul ijrochilar |
|----|--|---|---|
| 5. | <p>2023/2024 o'quv yilida oliy talim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlari o'tkaziladigan obektlarning yong'inga qarshi holatini o'rganish (tekshirish) ishlarini tashkillashtirish, aniqlangan kamchilik va nuqsonlarni shoshilinch bartaraf etish choralarini ko'rish, xususan:</p> <p>obektlarda o't o'chirgichlarning qo'shimcha zaxirasini yaratish;</p> <p>obektlarga birtiktirilgan ishchi xizmatchilarni imzo qo'ydirish orqali yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish bo'yicha yo'riqnomadan o'tkazish;</p> <p>yong'in sodir bo'lganda insonlar va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish bo'yicha reja (Evakuatsiya sxemasi) ishlab chiqib, ko'rinarli joylarga o'rnatish;</p> <p>obekt hududiga yong'in-qutqaruv va boshqa maxsus xizmatlar avtotransport vositalari kirib borish yo'llarining ochiqligi (sun'iy to'siqlar bilan to'sib qo'yilmaganligi)ni ta'minlash;</p> <p>ichki yong'in o'chirish kranlarini (mavjud bo'lsa) soz holatga keltirish, ularni yeng, dastak va ulash moslamalari bilan jamlash;</p> <p>evakuatsiya yo'llarining ochiqligini ta'minlash, ushbu yo'llarni turli buyum va boshqa yonuvchan ashyolar bilan to'sib qo'ymaslik choralarini ko'rish;</p> <p>barcha elektr ta'minoti tizimini muvofiq holga keltirish (elektr sim va kabellarni bir biriga to'g'ri ulash, elektr rozetka, o'chirgich, rubil'niklardan to'g'ri foydalanish, himoya saqlagichlar (avtomatlar), elektr jihoz va maishiy texnikalarning to'g'ri ulanishi) "Elektr uskunalarning tuzilish qoidalari" talablari asosida bajarilishini ta'minlash);</p> <p>xonalarning maishiy konditsionerlar bilan sovitilishida elektr jihozlardan xavfsiz foydalanish qoidalarga qat'i amal qilinishi ustidan nazorat o'rnatish.</p> | 2023 yil 10 avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmasi (N. Kayupov), "Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari" AJ (A. Nurimbetov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 6. | <p>O'rmon fondi obektlarida Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrda 506-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi o'rmonlarida yong'in xavfsizligi qoidalari quyida keltirilgan normalarini birinchi galda bajarish: temir yo'llar va shosse yo'llar bo'ylab ajratilgan polosalarning chetini kamida 4 metr kenglikda shudgor qilish, ularni shox-shabbalar, yog'och qoldiqlari va boshqa tez yonadigan materiallardan tozalangan holda saqlash;</p> <p>polosalar chegarasi bo'ylab ignabargli daraxtzorlarda yong'in xavfi yuqori mavsum davomida 1,4 metr kenglikdagi ma'danlashtirilgan polosalarni, shuningdek quruq tuproqdagi ignabargli daraxtzorlarda va kesilgan joylarda bir-biridan 5 metr masofada uzoqlikda bo'lgan 2 ta polosalarni doimiy toza holatda saqlash;</p> <p>yong'in xavfi yuqori mavsumda o'rmonzorlarni sektorlarga ajratish va har bir sektorga mas'ul xodimlarni birtiktirgan holda dozor xizmatini tashkil etish, ularga aniq vazifa va funktsiyalarni belgilab berish;</p> <p>yong'in xavfi yuqori mavsumda o'rmonzorga begona shaxslarni kiritmaslik choralarini ko'rish, o'rmonzor hududiga kirish joylarida ogohlantiruvchi belgilar o'rnatish va targ'ibotning boshqa samarali usullarini joriy qilish;</p> <p>mavjud suv havzalarini tozalash va ulardan yong'in-qutqaruv texnikasi bilan suv olish imkonini yaratish;</p> <p>hududiy Favqulodda vaziyatlar bo'limlari bilan maslahatlashgan holda sun'iy suv havzalari bo'lmagan o'rmonzorlar hududida sun'iy suv havzalarini yaratish yoki suv tashish texnikalarining kunu-tun navbatchiligini tashkil etish;</p> <p>yoq mavsumida o'rmonlarda yong'inga qarshi rejimga qat'i amal qilinishi ustidan keskin choralar ko'rish, chekish, olov yoqish va shu kabi ochiq olov yoxud yuqori harorat bilan bog'liq jarayonlarni taqiqlash;</p> <p>o'rmonlarda yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha mahalliy aholi, o'rmonlarda xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi ishchilarga hamda tashkilotlarga qarashli bino-inshootlarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan tushuntirish ishlarini olib borish;</p> <p>yong'inlarning oldini olish ishlariga volontyorlarni jalb qilish;</p> <p>o'rmon ustalari, o'rmonchilar va vaqtinchalik jalb etilgan volontyorlar hamda qorovullar bilan yong'inlarning oldini olish bo'yicha o'quv seminarlarini tashkil etish;</p> <p>yong'in sodir bo'lganda zudlik bilan yong'inni boshlang'ich davrida bartaraf etish usullari bo'yicha volontyorlar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;</p> <p>qutqaruv guruhlarini o'rmon yong'inlarini bartaraf etishga mo'ljallangan zaruriy vositalar, ya'ni, motopompa, suv sig'imi, olib yuriladigan suv purkagich, "xlopushka" bilan ta'minlash choralarini ko'rish.</p> | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar Doimiy | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi (M. Djumaniyazov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |

| № | Tadbirlar nomi | O'tkazish vaqti | Masul ijrochilar |
|-------------------------------|---|--|--|
| 7. | Uy-joy fondi obektlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi asosiy tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish: aholi yashash joylarida aholiga yong'in xavfsizligi qoidalarini tushuntirish, ogohlantirish va yo'l-yo'riq berishdan iborat profilaktik tadbirlarni yanada kuchaytirish; fuqarolarga kondisioner va muzlatkichlarga ularning quvvatini hisobga olgan holda elektr sim va umumiy elektr qutidagi himoya avtomatlarining hisob-kitob orqali to'g'ri tanlanganligiga alohida e'tibor qaratib, ulardan xavfsiz foydalanish masalalarida tushuntirishlar berish; istemolchilar tomonidan maishiy gaz ballonlarining to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri tushadigan joylarda saqlanishini qat'iy taqiqlash borasida ta'sirchan tushuntirish ishlarini olib borish; uylarda umumiy elektr tarqatish qutilaridagi nominal tok kuchidan yuqori bo'lgan himoya avtomatlaridan va qo'lbola saqlagichlardan foydalanish holatlariga barham berishga alohida e'tibor qaratish; yong'in kelib chiqishiga, tarqalishiga olib keluvchi yoki uni bartaraf etishni qiyinlashtiruvchi va (yoki) odamlarning xavfsizligiga tahdid soluvchi yong'in xavfsizligi talablarining buzilishi aniqlangan hollarda ularni joyida bartaraf etish choralari ko'rish; mahallalarda yonishga moyil bo'lgan begona o'tlar, qurigan o'simliklar va chiqindilarni tozalash choralari ko'rish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Qurilish va kommunal xo'jaligi vazirligi (A. Qurbanbaev), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| III. Alohida tadbirlar | | | |
| 8. | Bozorlar va savdo majmualarini elektr energiyasi bilan taminlovchi barcha jihoz va qurilmalarni, kabel-sim mahsulotlarini xavfsizlik qoidalariga muvofiqligi yuzasidan inventarizatsiyadan o'tkazish va shikastlanganlarini almashtirish choralari ko'rish; uy-joy fondi obektlarida elektr energiyasi iste'molining belgilangan me'yordan oshishi natijasida transformator podstantsiyalardagi ortiqcha yuklanish hisobiga texnik jihatdan eskirgan va avariya holatiga moyil transformator podstantsiyalarining himoya avtomatlari va saqlagichlari sozligini o'rganib, mavjud kamchiliklarni joyida bartaraf etish choralari ko'rish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | "Qoraqalpog' hududiy elektr tarmoqlari" AJ (A. Nurimbetov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 9. | Bozorlar va savdo majmualarida tabiiy gazdan noqonuniy foydalanishning oldini olish yuzasidan keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borish, aniqlangan holatlarda qoidabuzarlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda tasirchan choralari ko'rish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | "Hududgaz Qoraqalpog'iston" GTF (X. Aymanov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 10. | Xavfli ishlab chiqarish obektlarida, shu jumladan, gaz to'ldirish shoxobchalari va punktlarida, avtomobillarga gaz to'ldirish va quyish shoxobchalarida sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilinishini qonunchilikda belgilangan tartibda o'rganish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Kon geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi (I. Urazbaev), "Hududgaz Qoraqalpog'iston" GTF (X. Aymanov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 11. | Yo'lovchi tashuvchi jamoat transportlarini zamonaviy yong'in o'chirish uskunalari (avtomatik yong'in o'chirish qurilmasi, o't o'chirgichlar) bilan ta'minlash choralari ko'rish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Transport vazirligi (M. Omarov), Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 12. | Yirik savdo obektlarida noqonuniy qurilgan alohida imoratlarni shaharsozlik norma va qoidalariga muvofiqlashtirish choralari ko'rish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar va doimiy | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (A. Qurbanbaev), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 13. | Yangi qurilayotgan va qayta tamirlanayotgan obektlarda shaharsozlik norma va qoidalarini hamda yong'in qarshi tadbirlarga amal qilinishini o'rganish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar va doimiy | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (A. Qurbanbaev), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 14. | Suvsiz hududlarda va yangidan tashkil etilayotgan aholi yashash punktlarida suniy yong'in qarshi suv taminoti manbalarini barpo etish, mavjud tabiiy suv manbalarida pirlarni tashkil etish, nosoz gidrantlar va yong'in qarshi suv hovuzlarini tamirlash choralari ko'rish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Qurilish va kommunal xo'jaligi vazirligi (A. Qurbanbaev), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 15. | Yangidan tashkil etilayotgan o'ta muhim davlat ahamiyatiga molik, xavfli ishlab chiqarish obektlarida qonunchilikda belgilangan tartibda yong'in-texnik komissiyalarni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish; faoliyat ko'rsatayotgan yong'in-texnik komissiyalari tarkibini, kadrlar tarkibidagi o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda komissiyalar tarkibini qayta ko'rib chiqish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 16. | O'ta muhim va toifalangan obektlarda yong'in xavfsizligini taminlash bo'yicha uzoq muddatdan buyon hal etilmay kelayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), tegishli vazirlik va idoralar, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 17. | Idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qati nazar barcha tashkilot (obekt)larda hamda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining yong'in-qutqaruv bo'linmalari yoki ko'chma yong'in o'chirish texnikasiga ega idoraviy yong'in dan saqlash xizmatidan uzoq masofada joylashgan aholi punktlarida qonunchilikda belgilangan tartibda ko'ngilli yong'in dan saqlash xizmati bo'linmalarini tashkil etish; faoliyat ko'rsatayotgan ko'ngilli bo'linmalarining tarkibini yangilash choralari ko'rish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |

| № | Tadbirlar nomi | O'tkazish vaqti | Masul ijrochilar |
|-----|--|---|---|
| 18. | Suvsiz hududlarida shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi suv tashish texnikalarining kunu-tun navbatchiligini tashkil etish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 19. | Iqtisodiy ahamiyatga ega va favqulodda vaziyat yuz berish darajasi yuqori bo'lgan obektlar, odamlar ko'p yig'iladigan joylarda, shu jumladan bozorlar va savdo majmualarida amaliy yong'in-taktik o'quv mashqi va mashg'ulotlarini o'tkazish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Ichki ishlar vazirligi (B. Torebekov), Milliy gvardiyaning QR boshqarmasi (M. Yusupov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 20. | "Dolzab 30 kun" tadbiri doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, yong'inlarning oldini olish tadbirlari va yong'in xavfsizligi qoidalarini televideniada ommabop vaqtlarda maxsus teleko'rsatuvlar orqali yoritish, radioeshittirishlarni efirga uzatish, internet jahon axborot tarmog'i orqali hamda rasmiy telegram kanallarda axborot berib borish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi (Q. Bekbaov'iev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A. Bekmuratov), Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 21. | Mahalla faollarini keng jalb qilgan holda aholi orasida yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (S. Turmanov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 22. | Yong'in xavfsizligi sohasida namunaviy eslatma materiallari (buklet, plakat, qo'llanmalar, flaerlar va hokazo)ni ishlab chiqish va ularni keng ommaga yetkazish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 23. | Jamoat transportlari, odamlar ko'p yig'iladigan joylar va avtomobil' yo'llarining katta chorrahalardagi bilbordlar, elektron tablo va axborotni yetkazuvchi boshqa texnik vositalarga "Dolzab 30 kun" tadbirini yorituvchi va yong'in xavfsizligini targ'ib qiluvchi materiallarni joylashtirish. | 2023-yil 10-iyuldan 10-avgustga qadar | Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 24. | Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan muhokama yig'ilishlarini o'tkazish. | Har 10 kunda | Nukus shahar va tumanlar hokimliklari |
| 25. | "Dolzab 30 kun" tadbiri davomida amalga oshirilgan tadbirlar natijalari bo'yicha Vazirlar Kengashiga axborot kiritish. | 2023-yil 15-avgust | Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A. Davletov) |

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 7-iyuldagi
137-13-0-F/23-son farmoyishiga
2-ilova

“Dolzarb 30 kun” tadbirini amalga oshirish buyicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy komissiyasi

TARKIBI

| | | | |
|-----|-------------------|---|--|
| 1. | Sh.Dauletyarov | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari, hududiy komissiya raisi |
| 2. | A.Davletov | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i hududiy komissiya raisi o‘rinbosari |
| 3. | M.Djumaniyazov | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi raisi |
| 4. | A.Qurbanbaev | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri |
| 5. | M.Omarov | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vaziri |
| 6. | S.Turmanov | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri |
| 7. | I.Orazbaev | - | Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi huzuridagi Kon geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i |
| 8. | A.Aminov | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi rahbari |
| 9. | X.Qaipnazarov | - | Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i |
| 10. | A.Nurimbetov | - | “Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aktsiyadorlik jamiyati bosh direktori |
| 11. | X.Aymanov | - | “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” gaz ta‘minoti filiali direktori |
| 12. | Q.Bekbao‘liev | - | Qoraqalpog‘iston Teleradiokompaniyasi direktori |
| 13. | Lavozimi bo‘yicha | - | Nukus shahar va tumanlar hokimlari |

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 7-iyuldagi
137-13-0-F/23-son farmoyishiga
3-ilova

Joylarda amaliy yordam ko‘rsatish va belgilangan tadbirlarning ijrosini nazorat qilish maqsadida shahar va tumanlarga tegishli vazirliklar va idoralardan biriktiriladigan masullar

RO‘YXATI

| | | | |
|-----|--------------------|----------------|---|
| 1. | Nukus shahri | M.Seydullaev | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari |
| 2. | Qorao‘zak tumani | A.Davletov | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i |
| 3. | Amudaryo tumani | Z.Ziyadullaev | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri |
| 4. | Beruniy tumani | A.Qurbanbaev | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri |
| 5. | To‘rtko‘l tumani | M.Omarov | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vaziri |
| 6. | Taxtako‘pir tumani | M.Berdibaev | O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi xuzuridagi Neft maxsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi xududiy boshqarmasi boshlig‘i |
| 7. | Ellikqala tumani | M.Djumaniyazov | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi raisi |
| 8. | Chimboy tumani | X.Qaipnazarov | Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i |
| 9. | Kegeyli tumani | U.Sabirov | “O‘zenergoinspektsiya” Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy bo‘limi boshlig‘i |
| 10. | Bo‘zatov tumani | I.Orazbaev | Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi huzuridagi Kon geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i |
| 11. | Nukus tumani | R.Ruzimov | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i |
| 12. | Taxiatosh tumani | A.Nurimbetov | “Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aktsiyadorlik jamiyati bosh direktori |
| 13. | Xo‘jayli tumani | X.Aymanov | “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” gaz taminoti filiali direktori |

| | | | |
|-----|--------------------|----------------|--|
| 14. | Sho'manay tumani | M.Qurbanov | Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri |
| 15. | Qonliko'l tumani | B.Qutlimuratov | Sanitariya epedemiologiyalik asoyishtalik va jamiyat salomatligi boshqarmasi boshlig'i |
| 16. | Qo'ng'iro't tumani | S.Turmanov | Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri |
| 17. | Mo'ynoq tumani | A.Aminov | Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasi rahbari |